

## MEDIATSIYA INSTITUTINI OMMALASHTIRISH USULLARI

**Raxmonaliyev Mirjalol Avazbek o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakultetining

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14175537>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda mediatsiya institutini rivojlantirish va ommalashtirish usullari kompleks tahlil qilingan. Xususan, mediatsiyaning huquqiy nizolarni hal etishdagi ahamiyati, uni joriy etishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari yoritib berilgan. Mediatsiyani ommalashtirishning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati asoslab berilib, uning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mediatsiya institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari va ularning yechimi bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mediatsiya, ommalashtirish usullari, targ'ibot, axborot-tushuntirish ishlari, nizolarni hal etish, mediator, taraflar, mediatsiya jarayoni, huquqiy nizolar, mediatsiya markazlari, kelishuv madaniyati, muqobil usullar, ijtimoiy barqarorlik.

Zamonaviy jamiyatda nizolarni hal etishning muqobil usullarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mediatsiya instituti nizolarni tezkor va samarali hal etish vositasi sifatida alohida e'tiborga molik. Mediatsiya institutini jamiyatda keng joriy etish va ommalashtirish masalasi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, mediatsiya – nizolarni suddan tashqari hal etishning muqobil usuli bo'lib, nizolashayotgan tomonlarning kelishuvga erishishi uchun mustaqil vositachi (mediator)ning ishtirokini nazarda tutadi. Bu usulning asosiy maqsadi – nizoni taraflarning manfaatlarini inobatga olgan holda tinch yo'l bilan hal qilish bo'lib, bugungi kunda jamiyatda uning roli tobora oshib bormoqda.

Mediatsiya institutini ommalashtirish zarurati va istiqbollari bir qator ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Quyida ushbu omillar kengroq yoritib berilgan.

### **1. Sud tizimidagi ortiqcha yuklamani kamaytirish zarurati**

Sud tizimining asosiy vazifalaridan biri nizolarni adolatli va qonuniy asosda hal qilishdir.

Biroq, ko'plab davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham sudlar ortiqcha yuklama ostida ishlaydi. Nizolarni hal qilishda faqat sud jarayonlariga tayanish quyidagi muammolarni yuzaga keltiradi:

- *Ishlarning ko'pligi sababli sud qarorlari qabul qilishda kechikishlar yuzaga keladi.*
- *Fuqarolar uchun sud jarayonlari ko'pincha qimmat va uzoq davom etadi.*

- *Sudda taraflar o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha yanada keskinlashadi.*

Mediatsiya bu muammoni hal qilishning samarali usuli bo'lib, sudlarning yuklamasini kamaytirishga yordam beradi. Mediatorlar tomonidan nizolarni hal qilish jarayonining sudgacha bosqichida amalga oshirilishi nafaqat sud tizimining samaradorligini oshiradi, balki taraflarning o'z nizolarini faqat sudga murojaat qilish orqali hal qilishlari ehtiyojini kamaytiradi.

## **2. Nizolarni hal etishning tezkor va samarali mexanizmlariga bo'lgan ehtiyoj**

Sud jarayonlari ko'pincha uzoq muddat davom etadi va taraflardan katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Mediatsiya jarayoni esa tezroq, arzonroq va samaraliroq natija olish imkoniyatini beradi. Mediatsiya odatda bir necha kun yoki hafta ichida hal qilinadi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunida mediatsiya jarayonining 30 kunlik muddatli cheklovi taraflarga kelishuvga erishish jarayonini kechiktirmaslik va ortiqcha vaqt sarflashdan saqlanishga yordam beradi<sup>1</sup>. Shuningdek, mediatsiya taraflardan sudlarga nisbatan kamroq xarajat talab qiladi, chunki tomonlar davlat bojidan ozod qilinishi yoki past narxlardagi mediatorlik xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ushbu omil mediatsiya jarayonining samarasini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda har ikki tomonning manfaatlari hisobga olinadi. Tezkorlik va samaradorlik mediatsiyaning ahamiyatini oshiradi, ayniqsa, biznes, oilaviy, mehnat va iste'molchilar huquqlariga oid nizolarni hal qilishda.

## **3. Jamiyatda kelishuv madaniyatini rivojlantirish zarurati**

Jamiyatda nizolarni hal qilishda huquqiy va madaniy yondashuvning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Mediatsiya nafaqat nizolarni hal qilish, balki kelishuv madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Mediatsiyaning ijtimoiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- *Taraflar o'rtasida tinch va konstruktiv muzokaralar olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi.*
- *Jamiyatda adovat va ziddiyatlarni kamaytirib, o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi.*
- *Eng muhimlaridan, mediatsiya aholi o'rtasida o'z nizolarini sudga yetkazmasdan hal qilish madaniyatini targ'ib qiladi.*

Kelishuv madaniyatining rivojlanishi nafaqat shaxsiy nizolarga, balki ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

## **4. Xalqaro tajribada mediatsiyaning yuqori samara berishi**

---

<sup>1</sup> O'RQ-482-сoн 03.07.2018. Mediatsiya to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-3805227>

Mediatsiya butun dunyoda nizolarni hal qilishning samarali usuli sifatida keng qo'llanilmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi mamlakatlarda mediatsiyada nizolarni hal qilish amaliyoti sud orqali nizolarni hal qilishdan ko'proq uchraydi.

Tijorat va biznes sohasida kelib chiqadigan nizolar, oilaviy va ijtimoiy nizolarni hal qilishda mediatsiya yuqori natijalar berib, taraflar o'rtasidagi iliq munosabatlar saqlanib qolmoqda. Bu bilan aytish mumkinki, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy tizimga moslashtirish orqali mediatsiya institutining samaradorligini oshirish va uni jamiyatda ommalashtirish mumkin.

Mediatsiyani ommalashtirish – bu mediatsiya jarayonining afzalliklarini keng jamoatchilikka tanishtirish, unga bo'lgan ishonchni oshirish va jamiyatda uni nizolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida qabul qilishni ta'minlashdir. Ushbu jarayon jamiyatdagi har bir qatlamga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Biroq, ushbu jarayonda ham bir qator muammolar uchratish mumkin. Ushbu muammolar institutsional, huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy masalalarni o'z ichiga oladi. Quyida mediatsiya institutini ommalashtirishda uchrayotgan asosiy muammolar ko'rib chiqamiz.

*Huquqiy bilim yetishmasligi.* Avvalo, O'zbekistonda aholining mediatsiya jarayoni va uning huquqiy asoslari to'g'risidagi xabardorligi past darajada qolmoqda. Mediatsiya sud tizimiga alternativa sifatida yangi tushuncha bo'lib, ko'pchilik uni tanimaydi yoki noto'g'ri tushunadi.

Odamlar mediatsiya jarayonida ishtirok etish huquqlarini bilmaydi va bu jarayonning afzalliklarini anglamaydi. Mediatsiya jarayoni haqida yetarli huquqiy ma'lumot berilmaganligi natijasida, aholining ko'pchiligi faqat sudga murojaat qilishni muammo hal qilishning yagona yo'li sifatida ko'radi. Aholiga mediatsiyaning vaqtni tejashi, iqtisodiy jihatdan arzonligi va nizo tomonlari o'rtasida hamkorlikni tiklashga qaratilganligini tushuntirishga qaratilgan ma'rifiy va targ'ibot ishlari yetarli emas.

*Mediatsiya xizmatlari qamrovining cheklanganligi.* O'zbekistonda mediatsiya markazlari asosan yirik shaharlarda faoliyat yuritadi, lekin qishloq va chekka hududlarda bunday xizmatlar amalda mavjud emas. Qishloq joylarda mediatsiya xizmatlarining yo'qligi hududiy notekislikni keltirib chiqaradi, natijada qishloq aholisining bu imkoniyatlardan foydalanishi cheklangan.

*Mediatsiya jarayoniga ishonchning pastligi.* Jamiyatda mediatsiya jarayonining afzalliklari va samaradorligiga bo'lgan ishonch hali shakllanmagan. Mediatsiya orqali yechilgan nizolar bo'yicha aniq statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi, bu jarayonning ijtimoiy samarasini ko'rsatib bera olmaslikka olib keladi. Odamlar sud tizimining an'anaviyligini va uning kuchini afzal ko'rib, mediatsiyani norasmiy yoki samarasiz jarayon deb hisoblaydi.

*Idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi.* Mediatsiya sohasida davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida samarali hamkorlik tizimi shakllanmagan. Mediatsiya institutining rivoji faqat bitta tashkilot yoki sohaning mas'uliyati emas, balki turli idoralar va tashkilotlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq.

Yuqorida keltirilganlar hisobga olinadgan bo'lsa, mediatsiya institutini rivojlantirishdagi bu muammolarni hal qilish uchun tizimli va kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda davlatning faol ishtiroki, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashi hamda jamiyatda mediatsiya madaniyatini shakllantirish muhim omillar hisoblanadi. Shu maqsadda mediatsiya institutining barqaror rivojlanishi hamda uni ommalashtirish jarayoni bir qator o'zaro bog'liq usullar orqali amalga oshirilishi mumkinligini nazarda tutgan holda quyidagi usul va tavsiyalarni berish mumkin:

1. *Huquqiy savodxonlikni oshirish* jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, shu asnoda mediatsiya borasidagi xabardorlikni oshirish alohida o'rin tutadi.

Mediatsiya jarayonlari va uning afzalliklari haqida jamoatchilikni xabardor qilish uchun maxsus seminarlar, treninglar va vebinarlar tashkil etish lozim. Mahalliy darajada mediatsiyaning mohiyati va uning samaradorligi haqida ma'lumot beruvchi risola, broshyura va video materiallarni tarqatish orqali aholi o'rtasida mediatsiyaga oid tushunchalarni paydo qilish mumkin.

Bunda shu ko'rinishdagi materiallarda mediatsiya jarayonining asosiy bosqichlari, u bilan bog'liq tartib-qoidalar va taraflar uchun imkoniyatlar yoritib berilishi kerak.

2. *Mediatsiya jarayonini ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali keng targ'ib qilish* uning afzalliklari va samaradorligi to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishda muhim rol o'ynaydi.

Televizor, radio, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot kanallari orqali mediatsiyaning mohiyatini yoritish jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish amaliyotini targ'ib qilishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

3. *Mediatsiyani ta'lim tizimiga integratsiya qilish* – bu jamiyatda nizolarni tinch yo'l bilan hal etish madaniyatini shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. Yosh avlodga bolalikdan boshlab nizolarni muloqot orqali hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish, ularning kelajakda mas'uliyatli, tolerant va tinchliksevar shaxslar bo'lib yetishishiga hissa qo'shadi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlarida mediatsiya asoslarini "Ma'naviyat asoslari", "Huquqshunoslik" yoki "Fuqarolik jamiyati asoslari" kabi fanlarga integratsiya qilish mumkin.

4. *Davlat organlarida mediatsiyani joriy etish* nafaqat nizolarni hal qilishni tezlashtiradi, balki davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Bunda davlat xizmatchilarining mediatsiya tamoyillari va usullari haqida bilimga ega bo'lishi nizolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda davlat xizmatchilari uchun mediatsiya bo'yicha malaka oshirish kurslari joriy etilishi lozim. O'quv mashg'ulotlari davomida esa professional mediatorlarni jalb qilgan holda amaliy sessiyalar o'tkazib, ushbu kurslarni samarasini oshirishga erishish mumkin.

5. *Xalqaro tajriba va texnologiyalardan foydalanish* orqali mediatsiya institutini rivojlantirish va yanada samarali bo'lishini ta'minlash mumkin. Xossatan, mediatsiya tizimini xalqaro darajada sifatli va samarali tashkil etish uchun xalqaro standartlarga moslashish zarur.

6. Masalan, BMT yoki Yevropa Ittifoqining mediatsiya bo'yicha tavsiyalari va hujjatlari asosida O'zbekistonda mediatsiya tizimi normativ-huquqiy bazasini qayta ko'rib chiqib, takomillashtirish lozim. Bunda xorijiy mediatorlarni o'qituvchilar sifatida jalb qilish va xalqaro ekspertlar bilan ishlash ushbu masalani osonlashtiradi. Shuningdek, 2019-2020-yillarda butun dunyoda yuz bergan koronavirus epidemiyasi natijasida masofadan turib ishlashning keng tarqalishi sababli onlayn mediatsiya ham tobora ommalashib bormoqda. Shu asnoda mediatsiya jarayonini onlayn tarzda o'tkazish uchun maxsus platformalar ishlab chiqish yoki ishlab chiqilganlaridan kengroq va barqarorroq foydalanish uslubiga o'tish kerak. Bunday platformalar mediatorlar va taraflarga masofadan turib o'zaro muloqot qilish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mediatsiya instituti zamonaviy huquqiy tizimda nizolarni hal qilishning samarali va tejamkor vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

U nafaqat nizolarning tez va tinch yo'l bilan hal etilishiga yordam beradi, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va tomonlar o'rtasida konstruktiv muloqotni tiklashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu institutni rivojlantirishda huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash, davlat va nodavlat sektorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Kelgusida mediatsiya institutining to'liq rivojlanishi uchun tizimli va integratsion choralarni amalga oshirish lozim. Bu nafaqat jamiyatdagi nizolarni qisqartirishga, balki barqaror va ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni. 2018 yil 3 iyul.
2. A.Haqberdiyev. Mediatsiya: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 245b.
3. Zamonaviy nizolarni hal etish usullari. Monografiya. – Toshkent, 2022. – 320 b.

4. Xalqaro mediatsiya standartlari to'plami. – Toshkent, 2023. – 180 b.
5. Spencer D., Brogan M. Mediation Law and Practice. Cambridge University Press, 2021.
6. Moore C.W. The Mediation Process: Practical Strategies for Resolving Conflict. Wiley, 2022.
7. Boulle L., Alexander N. Mediation: Skills and Techniques. LexisNexis, 2023.